

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

**«5640100 –Veterinariya» ta'lim yo'nalishi
4-bosqich bakalavriat bitiruvchisi**

IRISQULOV BEKZOD

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**QORAMOLLAR TEYLEROZ KASALLIGINING DAVOLASH
VA OLDINI OLISH TADBIRLARI**

Ilmiy rahbar: assissent

Tursunqulov.

**Veterinariya, zootexniya va
qorako'lchilik fakulteti
dekani, dosent _____
N.O.Farmanov
«_____» _____ 2011 yil**

**“Hayvonlar kasalliklari va
parazitologiya” kafedrası mudiri, dosent
v.f.d _____ R.B.Davlatov
«_____» _____ 2011 yil
№ _____ - sonli yig'ilish bayoni**

Samarqand – 2011

M U N D A R I J A :

1. Kirish.....	3
1.1. Mavzuning halq xo'jaligida dolzarbligi.....	8
1.2. Mavzuning maqsadi va vazifalar.....	9
II. Ilmiy adabiyotlar taxlili va internet ma'lumotlari.....	14
III. Xususiy tadqiqodlar.....	17
3.1. Hayvonlarni kasallikdan himoyalashda kanalarga qarshi kurash usullari.....	18
3.2. Kanalarni mehanik usulda o'ldirish.....	18
3.3. Kanani kimyoviy usulda qirish.....	19
3.3.1. Quruq usul.....	19
3.3.2. Mollarni vannada cho'miltirish yoki suyuq dori purkash.....	20
3.3.3. Hayvonlarni margimush angidrid eritmasida cho'miltirish.....	20
3.3.4. Chorva mollarini boshqa xil akarisid preporatlar bilan dorilash.....	22
3.3.5. Polixlorpinen.....	22
4. Xo'jaliklarda mollarga kana tushushini oldini olish.....	26
4.1. Yaylov kanalarining tarqalishini o'rganish.....	27
4.2. «Sipermetrin» pereparatining akarasid ta'sirini o'rganish.....	27
5. Veterinariya ishini tashkil etish va uning iqtisodi.....	33
6. Qoramolchilikda ishlab chiqarishni tashkil etish.....	38
7. Fuqarolar mudofasi va mehnat faoliyati havfsizligi.....	42
7.1. Mehnatni muhofaza qilish.....	43
7.2. Fuqarolar mudofaasi.....	44
8. Xulosalar va takliflar.....	45
9. Adabiyotlar ro'yxati.....	46
10. Ilovalar va internet ma'lumotlari.....	49

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2011 yil 21 yanvarda "2010 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy yakunlari va 2011 yil iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor vazifalari"ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida: «Yurtimizda 2011 yilni "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilganimizdan yaxshi xabardorsizlar. Biz 2011 yilga bag'ishlangan maqsadlarga erishish bo'yicha dasturiy chora tadbirlarni, shu jumladan, xususiy mulk va tadbirkorlik faoliyati erkinliklarini ishonchli muhofaza qilish, kichik biznes muxitini yaratish, shu asosda aholi bandligini va farovonligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz» - deb ta'kidladi.

Bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" kitobida odamzot uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo'lib kelgan ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini har tomonlama keng qamrovli fikr va xulosalar orqali tahlil etib, "Ma'naviyat-insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir", deb ta'riflaydi.

Bugungi kunning eng dolzarb muammosi – bu 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat.

Mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009 – 2012-yillarga mo'ljallab qabul qilingan "Inqirozga qarshi

choralar dasturi”da ko’zda tutilgan tartiblarni izchillik bilan amalga oshirish jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining taxdid va xatarlariga munosib qarshi turish, uning iqtisodiyotimizga salbiy ta’sirining oldini olish imkonini beradi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Qonunchilik palatasining birinchi majlisidagi “Iqtisodiy munosabatlarni demokratiyalash bozor islohatlarining muhim sharti” ma’ruzasidagidek davlatimiz iqtisodiy jihatdan mustaqil bo’lishni nazarda tutib, xalqimizning ehtiyojini qondiradigan g’alla, don, go’sht, sut mahsulotlarini chetdan olib kelishni keskin kamaytirdik degan edi. Shu bilan birga ijtimoiy iqtisodiy vaziyatli xam ancha murakkab ekanligi ham etirof etish lozim dedi.

Iqtisodiy isloxlarning bugungi bosqichida eng muhim va dolzarb vazifa-mulkiy munosabatlarni tubdan o’zgartirib kelmoqdir. Uning tub moxiyati-mulkni huquqiy egalari qo’liga berishni tezlashtirish tadbirkorlik uchun yo’l ochib berish va mulkdorda yangi egasi xissiyoti-tarbiyalashdan iborat degan edi.

Prezidentimizning farmonlarini amalga oshira borib kolxozlar, shirkat xo’jaliklarga, fermerlar uyushmasiga, chorvachilik fermalari esa, fermerlar qo’liga o’tib o’z rivojini topmoqda va shuning bilan birgalikda veterinariya xizmati ko’rsatishda ham ayrim muammolar, paydo bo’lmoqda.

Respublikamiz aholisini sifatli va arzon chorvachilik mahsulotlari bilan yanada yaxshiroq ta’minlash chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni ko’paytirish, ularni tushimlilikini va sanitariya sifatini oshirish katta ahamiyatga ega bo’lib, buzoqlar temiratkisi bu masalani samarali hal etishga katta to’sqinlik qilmoqda. Ularning oqibatida chorvachilik fermer xo’jaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazilayotgan bo’lsada bu kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bugungi kunda ham dolzarb muommolardan biri hisoblanadi. Bu o’z navbatida kasalliklarni oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotda joriy etish ehtiyojini tug’diradi.

2008-yili Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan “Shaxsiy yordamchi dehqon va fermer xo’jaliklarda chorvachilikni rivojlantirishni rag’batlantirish

to'g'risida" qabul qilingan 308- sonli qarori bugungikunda eng muhim o'rin tutadi. Ushbu muhim davlat hujjati shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarda chorvachilikni birinchi navbatda esa qoramolchilikni rivojlantirishga qaratgan. Uning uchun esa turli imtiyozlar berilgan. Bunga chorvachilikda amalga oshirilib kelayotgan turli ko'rinishdagi islohatlarni yaqqol misol bo'la oladi.

2008-2010- yillardagi davrda shaxsiy yordamchi dehqon va fermer xo'jaliklarda qoramollar sonini ko'payishi maqsadli parametrlarini 2-ilovaga muvofiq.

2008-2010-yillardagi sug'oriladigan yerlar yem xashak ekinlarini maydonlarini hisoblab chiqilgan prognozi 3-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

Qishloq va suv xo'jalik vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirlar kengashi Raisi, viloyatlar va tumanlar hokimlari zimmlariga mazkur qaror bilan tasdiqlangan. Tadbirlarini o'z vaqtida va sifatli ijro etish yuzasidagi shaxsiy javobgarlik yuklansin.

Vatanimiz bosqichma-bosqich va baqaror rivojlanishni ta'minlash bizning oliy maqsadimiz. Qishloq xo'jaligidagi islohatlarini chuqurlashtirish fermerlik harakatini qo'llab quvvatlash, moddiy va ma'naviy ba'zasini mustahkamlash, ularga yanada keng yo'l ochib berish, bu borada yangi imtiyoz va imkoniyatlarni to'ldirish qisqacha aytganda, qishloqda paydo bo'layotgan mulkiy munosabatlarni, yangi o'rta sinf vakillari- mulkdorlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlarning manfaatlarini himoyalash bugungi kunda eng katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yil 21 yanvarda "2010 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy yakunlari va 2011 yil iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor vazifalariga"ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida: "Yurtimizda 2011 yilni "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilganimizdan yaxshi xabardorsizlar. Biz 2011 yilga bag'ishlangan maqsadlarga erishish bo'yicha dasturiy chora tadbirlarni, shu jumladan, xususiy mulk va tadbirkorlik faoliyati erkinliklarini ishonchli muhofaza qilish, kichik biznes muxitini yaratish, shu asosida aholi bandligini va

farovonligini oshrish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz" - deb ta'kidladi.

Bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" kitobida odamzot uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo'lib kelgan ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini har tomonlama keng qamrovli fikr va xulosa-lar orqali tahlil etib, "Ma'naviyat-insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir", deb ta'riflaydi.

Bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" kitobida odamzot uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo'lib kelgan ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini har tomonlama keng qamrovli fikr va xulosa-lar orqali tahlil etib, "Ma'naviyat-insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir", deb ta'riflaydi.

Bugungi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi to'g'risida ko'p gapirilmoqda. Dastlab AQSh da ko'zga tashlangan, keyinchalik Yevropa va Osiyo davlatlari jahonning boshqa mintaqalarida kengayib borayotgan ushbu inqirozning

mamlaatimizda ta'sirini yumshatish salbiy oqibatlarini bartaraf etish borasida zarur chora-tadbirlar ko'rilmoqda. 2003-2012 yillarga mo'ljallanib qabul qilingan "Inqirozga qarshi choralar dasturi"da tarmoqlar va hududlar bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar ijrosi hukumatimiz komissiyasi joylardagi hududiy guruhlar tomonidan qat'iy nazoratga olinganligi ayniqsae'tiborga sazovordir. Bu jarayonda amalga oshirish zarur bo'lgan vazifalar Prezidentimizning 2008-yilda mamlakatimiz ijtimoiy dasturni eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining ham alohida qayd etilib ko'rilayotgan chora-tadbirlar o'zining dastlabki samarasini berayotganligi takidlandi.

Haqiqatdan ham amalga oshirilayotgan oqilona chora-tadbirlar tufali jahon moliyaviy inqirozining mamlakatimiz iqtisodiy faoliyati ta'siri yumshatilyapti. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarning qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashni ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" gi farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan 2003-2012 yillarga mo'ljallangan inqirozga qarshi choralar dasturi, vazirlar mahkamasining shu masalaga ta'luqli qarorlari bo'yicha muassalariga yegishli ko'rsatmalar berilib ular tomonidan chora-tadbirlar rejasi belgilab olingan.

Xususan buzoqlarda teylerioz kasaligi nafaqat chorvachilikda katta iqtisodiy zarar keltirib qolmasdangina insonlar o'rtasida keng tarqalgan o'ta xavfli parazitar kasallik bo'lib amalda veterinariyada tadbirlarni rejali ravishda tashkillashtirish va oqilona amalga oshirishda biz mutaxassisilardan talab etiladi. Bu esa buzoqlar teylerioz kasalligini qarshi chora-tadbirlarini, ayniqsa dezinfeksiya tadbirlarini o'z vaqtida qisqa muddatda veterinariya qonunchiligiga amalga oshirishda parazitlarni yo'qotishda maxsus profilaktikaning ahamiyati juda katta.

O'zbekiston Respublikasi hududida teylerioz kasalliklari jamoat, fermer va xususiy chorvachilikka juda katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Ular chorva mollari mahsuldorligini keskin kamaytiradi, ko'plari qaloq bo'ladi. Masalan, anaplazmoz

va teylermozlarni misolida ko'rsak, ular bilan kasallangan qaramolning 40-50 % o'lishi mumkin.

Teyleridlar hayvon organizmining rezistentlik hamda reproduktiv qobiliyatiga yomon ta'sir etadi va teylerioz kasalliklarini boshidan kechirgan qoramollarda yurak va boshqa organlarning ish qobiliyati izdan chiqadi. Mahsuldorligi va ishlash qobiliyati pasayadi. Bu kasalliklar jaydari mollarni zotli mollar bilan chatishtirish kabi naslchilik zotli mollarni piroplazmidozlar tarqalgan xo'jaliklarda keltirish xavfli, sababi nasldor-hayvonlar og'ir kasallanadi.

Teylerioz keng tarqalgan bo'lib, alohida yoki aralash holda uchraydi va kasallik og'ir kechadi, shuning uchun ham vetvrachlardan diagnoz qo'yishda katta mahorat talab qiladi, davolashda esa maxsus (spesifik) dorilarni tanlash kerak bo'ladi.

Xo'jaliklarda o'tkaziladigan maxsus ximioterapevtik ishlovlar hamda kanalarga qarshi kurash choralari ko'pchilik qoramollarni o'limdan saqlab qolishi mumkin.

1.1. Mavzuning halq xo'jaligida dolzaribli

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki teyleriozlar hamma hududlarda keng tarqalgan. Teylerioz yirik shohli hayvonlar, qo'tos hamda zebularning o'tkir va yarim o'tkir kechadigan transmissiv invazion kasalligi hisoblanib, Theileria annulata ni dastlab RES hujayralarida, so'ngra eritrositlarda parazitlik qilishi tufayli sodir bo'lib, limfa tugunlarining kattalanishi, tana haroratining ko'tarilishi, anemiya, yurak-tomir va hazm organlari faoliyatlarini izdan chiqishi, kasal hayvonlarning oriqlanishi va o'lim darajasining yuqori bo'lishi bilan harakterlanadi.

Shuning uchun ham biz o'z hududimizda quyidagi savollarni o'rganishni maqsad qilib qo'ygan:

- Kasallikning tarixi;
- Kasallikning O'zbekiston hududida tarqalishi;

- Yaylov kanalarining kasallik paydo bo'lishida ahamiyati;
- Hayvonlarni kasallikdan himoyalashda kanalarga qarshi kurash usullari;
- Samarqand va Jomboy tumanlari xo'jaliklarida teyleriozning oldini olish chora-tadbirlari
- O'tkazilgan chora-tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi.

1.2. Mavzuning ilmiy amaliy asoslash.

Teyleriozlar yirik shoxli mollarning o'tkir kechadigan qon parazitlar kasalliklari hisoblanib bir necha avlodga mansub parazitlar (piroplasma, babessa, theileria, Francaiella)ning qon eritrositlarida va RES hujjatlarida parazitlik qilishi oqibatida chaqiriladi.

O'zbekistonning barcha hududlarida, ayniqsa Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlarida ko'p uchraydi. Buning asosiy sababi yaylov kanalarining keng tarqalganligi bo'lsa, ikkinchi sababi bu kanalarga qarshi ishlatiladigan aksariyat dorilarning tanqisligidir.

Bundan tashqari ximioterapiya uchun ishlatiladigan spesifik dorilar bir kasallikda yaxshi samara bersa, ikkinchisida sustroq, yana boshqasida esa umuman ta'sir etmaydi.

Teyleriozlarning, shu jumladan babeziozolezning paydo bo'lishida va rivojlanishida 3 ta asosiy zanjir bor, ya'ni:

1. Kasallangan hayvon organizmida kasallik qo'zg'atuvchisining mavjudligi;
2. Qo'zg'atuvchilarni tashuvchi yaylov kanalarining borligi;
3. Kasallikka moyil hayvonlarni mavjudligi

Mana shu epizootologik zanjirning biror bo'g'ini yetishmasa unda hayvonlarni pirop plazmidoz kasalliklari bo'lmaydi.

Har yili teylerioz kasalliklari uchrab turadigan xo'jaliklarda bu kasallik qo'zg'atuvchilari ham uchrab turadi. Teylerioz bilan kasallangan hayvonlar kanalarining zararlanishi uchun asosiy manba hisoblanadi va ular o'z navbatida

kasallikni unga moyil hayvonga yuqtiradi. Epizootologik zanjirdagi bo'g'inlarning o'zaro munosabatiga ko'ra pirop plazmidoz manbalari quyidagilarga bo'linadi.

1. Latent (yashirin) zona. Teylerioz kasalliklarini tarqatuvchi yaylov kanallari va qo'zg'atuvchilarini organizimda tashuvchi hayvonlar bo'lgan mintaqalar-yashirin zona hisoblanadi. Bu joylardagi hayvonlar har yili zararlangan kanalar hujmidan pirop plazmidoz kasalliklariga doimiy chalinib turadilar. Natijada bunday hayvonlarda orttirilgan nisbiy imunitet bo'ladi. Shuning uchun bunday yashirin zonalarda katta yoshdagi mahalliy qoramollar pirop plazmidlar bilan kasallanmaydi. Buzoqlar esa yengil kasallanib voyaga yetgunga orttirilgan nisbiy imunitetga ega bo'ladi. Yashirin zona sharoiti chetda keltiriladigan kasallikka moyil ayniqsa zotli hayvonlar uchun xavflidir, chunki ularda nisbiy orttirilgan immunitet bo'lmaydi, natijada ular pirop plazmidoz bilan og'ir kasallanadi va ko'plab nobud bo'ladi.

2. Epizootik zona. Bunday zonada kasallikni tarqatuvchi kanallari, organizmida kasallik qo'zg'atuvchisi bo'lgan hayvonlar va immuniteti kuchsizlangan, chetdan keltirilgan moyil hayvonning bo'lishi bu epizootik zanjirdagi uchala tarkibiy qismlarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bu zonadagi hayvonlar har yili pirop plazmidoz kasalliklaribilan kasallanadi. Ammo ayrim sabablarga ko'ra masalan: havo quruq kelgan yillari yaylov kanallarining soni, turi kamayib ketishi tufayli hayvonlar pirop plazmidoz qo'zg'atuvchilariga nisbatan immunitetini yo'qotadi.

Kelgusida yaylov kanalarining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit paydo bo'lishi bilan ular tezda rivojlanib ko'paya boshlaydi va hayvonlarga pirop plazmiditlarni yuqtiradi.

3. Teylerioz xavfiga esa zona bunday joylarda yaylov kanallari pirop plazmidiyalar bilan zararlanmagan, ammo kasallikka moyil hayvonlar bor, faqatgina qo'zg'atuvchilarni tashuvchi hayvonlar bo'lmaydi. Bunday xo'jaliklarga to'satdan pirop plazmiditlarni tashuvchi birorta hayvon keltirilsa pirop plazmidozning epizootik o'chog'iga aylanadi. Tuman, viloyat va o'lkalarda geografik iqlim hamda

xo'jalik sharoitlarning o'zgarishi bilan yuqorida bayon etilgan zonalar ham o'zgarishi mumkin yoki teyleriozlarning epizootik, yashirin va latent zonalariga aylanishi va aksincha ham bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizning ayrim qonini so'rib tuygandan keyin tashqi muhitga chiqib, tuxumlarini yerga qo'yadi. Ona kana tuxumning xammasini qo'yib bo'lishi bilan o'ladi. Tuxumdan juda kichkina olti oyoqli lichinka chiqadi. U xayvonga yopishib qonini so'rib xo'llaydi va tashqi ko'rinishidan ona kanaga o'xshagan sakkiz oyoqli nimfaga aylanadi. Lichinka hamda nimafa kanalarining jinsiy voyaga yetmagan fazasi bo'lganligi uchun jinsiy ko'paymaydi. Ularning jinsiy teshigi yo'q. Lichinkalarning nafas olish organlari bo'lmaydi ular butun tanasi orqali nafas oladi. Nimfa tanasining ikki biqinida to'rtinchi juft oyoqlarining yonida joylashgan stigma bilan tugovchi kekirdakdan nafas oladi. Oziqlanib to'ygandan keyin nimalar tullab, jinsiy voyaga yetgan erkak urg'ochi kanaga aylanadi.

Shunday qilib, kanalar o'z boshidan shitafermos o'zgarishlarni boshdan kechirib bu davrdan ikki marta tullaydi va lichinka nimfa va imaga fazasini boshdan kechiradi.

Kanalar lichinka va nimfa davrida ko'pincha yovvoyi hayvon va parrandalar hisobiga yashaydi. Jinsiy voyaga yetgan fazasida yirik oddatda uy hayvonlarining qoni bilan oziqlanadi. Ba'zi bir turdagi kanalar jumladan, *Hyalomma scupense*, *H. anatolicum*, *H. Detritun*, *B. Calcakatus* harakat qilish davrida uy hayvonlari hisobiga yashaydi.

Kanalar yil tullaganidan keyin hayvon qonini so'rib yashaydi va shu vaqtda kana tanasini o'rab olgan xitin birmuncha qattiqlashadi.

Ayrim lichinkalar, och qolgan nimfa va imagalar o'tlarga yopishib harakat qiladi. Ular orqa oyoqlari bilan o'tlarga yopishib oladi va oldinga bir juft oyoqlarini yuqoriga ko'tarib tebranib turadi. Kanalar eshitish organlari yordamida hayvonlarning yaqinlashayotganini sezib, yuqori ko'tarib turgan oyoqlaridagi tirnoq va so'rg'ichlari bilan hayvon tanasiga yopishib oladi va darhol xartumi bilan

terini teshib hayvon qonini so'ra boshlaydi. Hayvon qonini so'rgan urg'ochi kana o'z vaznidan bir necha martta og'irlashib ketadi.

Hayvon qonini so'rish davri kanalarining rivojlanishiga qarab (lichinkalar 3-7 kun, nimfalar 3-10 kun, imagolar 8-10 kun) davom etadi.

Kanalar rivojlanishi davrida xilma-xil tabiiy sharoitda yashab qishlashi mumkin, kuzda qo'yilgan tuxumlari qishlab chiqib, undan kelgusi yil bahorda lichinka chiqadi.

Ayrim turdagi kanalar (H. Scupense) jinsiy voyaga yetganda hayvon tanasida qishlaydi va hatto shu organizmda rivojlanadi. Erkak kanalar urg'ochilariga qaraganda hayvon qonini kamroq so'radi va xo'jayinining tanasida uzoq yashaydi. Odatda bir joydan ikkinchi joyga o'tib, urg'ochi kanalarni izlaydi va ularni topib urug'lantiradi.

Shuningdek teyleriylar yuqqan kanalar bir hayvon ikkinchisiga o'tib, bir qonga hayvonlarga yuqtiradi.

Kanalarining ayrim turi, jumladan H. Scupensening urg'ochisi ham bir hayvondan ikkinchisiga o'tib kasallik tarqatishi mumkin. Rivojlanishi va oziqlanishiga qarab bir, ikki va uch xo'jayinli yaylov kanalari bo'ladi.

Bir xo'jayinli kanalar *Boophilus calcaratus*, *Hyalomma scupense* metamorfoz o'zgarishni hamma aktiv fazasida yerga tushmasdan bir xo'jayin tanasida o'tkazadi.

Ikki xo'jayinli kanalar o'zining birinchi xo'jayinlariga lichinkalik davrida yopirilib, uning tanasidan tushmasdan shu yerda gullab, nimfaga aylanadi. Nimfa qon so'rib to'ygandan keyin yerga tushib tullaydi, so'ngra imogoga aylanadi. Imogo oziqlanish uchun ikkinchi xo'jayinga hujum qilib, ularning qonini so'rib to'ygandan keyin, yerga tushadi, ikki xo'jayinli kanalarga *R.Bursa*, *H.Plumbeum*, *H.detrium* va boshqa.

Uch xo'jayinli kanalar uch turdagi hayvon organizmini almashtiradi. Birinchi xo'jayinga lichinkalik davrida xujum qilib qonini so'rib bo'lganidan keyin yerga tushadi, tullaydi va nimfaga aylanadi. Nimfa ikkinchi xo'jayinga o'rmalab

o'tadi, to'ygach yerga tushib tullaydi va imogoga aylanadi. U uchunchi xo'jayinga xujum qilib, uning qonini so'radi, so'ngara tuxum qo'yish uchun yerga tushadi va tuxum qo'yadi. Bu xildagi rivojlanish tipi yaylov kanalarining Hyalomma, Rhipiceohalus, Hameaphysalis, dermacentor vakillari uchun xarakterlidir.

Bir va ikki xo'jayinli kanalarning lichinka va nimfalari mayda yovvoyi sut emizuvchilari (ko'pincha kemiruvchi va hashoratxo'rlar), parrandalar, kamroq sudralib yuruvchilar hisobiga yashaydi. Imogo davrida esa bug'u, arxar, cho'chqa kabi hayvonlarning qonini so'rib oziqlanadi.

2. ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarixiy manbalarda ta'kidlanishicha bir hujayralari parazitlar va ular tomonidan qo'zg'atiladigan kasalliklar haqidagi ilk ma'lumotlar Turkiston o'lkasida bevosita dunyo tibbiyot ilmining asoslaridan hisoblanmish Abu Ali Ibn Sino (Avisenna) faoliyati bilan bog'liqdir.

1903 yil R.Koch dengiz isitmasi bilan kasallangan qoramollarda anor donachalariga o'xshash parazitlarni topib "Qon sharchalari" deb nomlanadi.

Rossiyada teylerioz to'g'risida birinchi ma'lumot 1903 yil Ye.P.Junkovskiy va I.M.Lus tomonidan "Jamoat veterinariyasi" jurnalida yaop etilgan hamda Kavkazorti davlatlarida qoramollar orasida Piroplazmozdan farq qiluvchi kasallik mavjudligini aytib unga "Tropik piroplazmoz" qo'zg'atuvchisiga esa Piroplasma annulata deb nom bergan.

Turkiston o'lkasida yirik shaxsli hayvonlar piroplazmasi borasida birinchi ilmiy asoslangan ma'lumotlar 1910 yili V.I.Stolnikov tomonidan berilib, u bu kasallikning epizotologik ma'lumotlari, klinik belgilari patologoanatomik o'zgarishlari haqida bayon qilib, piroplazmoz kasalligini teylerioz kasalligidan farq qilgan.

1913 yil yirik parazitolog olim V.L.Yakimov Turkiston o'lkasiga bo'lgan ekspeditsiyani boshqarib tripanosomioz, iyshianioz, piroplazmoz kasalliklari borasida ko'pgina oliy-tekshirish ishlarini olib boradilar va kasallik qo'zg'atuvchilarni toshuvchi kanalarining faunasini aniqladilar. V.L.Yakimov va uning ko'p sonli shogirdlari tomonidan veterinariya protozoologiyasiga oid bajarilgan asosiy ilmiy tekshirish ishlari katta ahamiyatga molikdir.

O'zbekistonda yirik shoxli hayvonlar teyleriozi to'g'risidagi ma'lumotlarni 1906-1911 yillari I.M.Kavalevskiy ham bayon qilgan. U hayvon qonini mikroskop asosida tekshirib, ularning birida noksimon, boshqasida yumaloq, yana birida nuqtasimon parazitlar borligini aniqlab, kasal hayvonlarning ikki organlaridan

taloq, buyrakning o'zgarganligi va siydik pufagida qonsiz siydik borligini hamda shirdonning shilliq pardalarida harakterli yarachalar borligini qayd etgan.

O'zbekistonda boshqa fanlar qatori veterinariya fanlari ham o'z ravnaqini 1920 yillardan so'ng topdi.

1924 yilning mart oyida Toshkentda O'rta Osiyoda birinchi bo'lib milliy muassasa – Turkiston veterinariya bakterialogik laboratoriyasi tashkil etildi va undan keyinchalik veterineriya ilimiy tadqiqotlari instituti paydo bo'ldi.

Bu vaqtda O'zbekistonda veterinariya fanini, shu jumladan protozoologiya fanini rivojlantirishga beqiyos katta xizmat ko'rsatdi. Bu bilimsoh jamoasi o'zining birinchi ilmiy – tekshirish ishlarini bu o'lkada keng tarqalgan qishloq xo'jalik hayvonlarining piroplazmidozlarini o'rganishdan boshladi.

Piroplazm, fransaiyeya va teyleriylarining immunabiologik xususiyatlari A.V.Bogorodiskiy tomonidan o'rganilgan. P.N.Li, K.O.Orifjonov va boshqalarning olib borgan ilmiy ishlari tufayli O'zbekistonga olib kelingan yirik shoxli hayvonlar orasida piroplazmoz va teylerioz kasalligining oldini olishni samarali choralar ishlab chiqildi.

S.A.Nodirov, K.O.Orifjonov, T.X.Raximov, I.R.rasulov va boshqalar tomonidan O'zbekistonda yirik va mayda shoxli hayvonlarning anaplazmoz kasalligi tarqalishining biologik qonunlari o'rganildi va ularni toshuvchi kanalar aniqlandi.

Shuningdek, O'z VITI ilmiy maktabida Orifjonov K.O., Rasulov I.X., Boboyeva S.K., Bokov V.F., Oripov A.O., Bernadskaya Z.M., Bogorodskiy A.V., Valiyev V.V.lar ham kanalar, piroplazmoz va teyleriozlarning biologiyasi va immuniteti kabi yo'nalishlarda salmoqli tadqiqotlar o'tkazishgan. Professor Uzoqov O'.U. kanalar va pirolazmidozlarga oid keng qamrovli tekshiruvlar o'tkazib, ilmiy-amaliy ahamiyatga moli natijalarga erishgan.

So'ngi yillarda Raximov T.X., Karimov B.A., G'afurov A.G', Tursunov I.T. va boshqalar piraplazmidozlarga oid keng qamrovli tekshiruvlar o'tkazilib, mazkur soha rivojiga barakali ulush qo'shmoqdalar.

Teylerioz va boshqa piroplazmidoz kasalligini o'rganish 1897 yili R.Koch tomonidan boshlangan bo'lib Dar-es-Salam shahrida qoramollar qonida Piroplazmalar bilan birgalikda har xil shakldagi teyleriylarni ham topgan edi.

Yirik shohli mollarning piroplazmoz va teylerioz kasalliklarida qayta zararlanishga nisbatan mustahkam orttirilgan immunitet paydo bo'ladi. Piroplazmozda premunsiya tipiga xos immunitet rivojlansa, teyleriozda esa, u ehtimol steril bo'ladi.

1986 yilda esa bir guruh UzVITI olimlari yirik shohli hayvon-larning teylerioziga qarshi vaksina ishlab chiqib Davlat mukofotiga sazovor bo'lganlar.

T.H. Raximov, E.K. Shmunk, B.A. Karimov, A.G. Gofurov, M.T. Tursunov va boshqalar piroplazmidozlarga oid keng qamrovli tekshiruvlar o'tkazishib, mazkur soha rivojiga barakali ulush qo'shmoqdalar.

Yuqorida aytilganidek teylerioz hamma hududlarda keng tarqalgan. Teylerioz yirik shohli hayvonlar, qo'tos hamda zebularning o'tkir va yarim o'tkir kechadigan transmissiv invazion kasalligi hisoblanib, Theileria annulata ni dastlab RES hujayralarida, so'ngra eritrositlarda parazitlik qilishi tufayli sodir bo'lib, limfa tugunlarining kattalanishi, tana haroratining ko'tarilishi, anemiya, yurak-tomir va hazm organlari faoliyatlarini izdan chiqishi, kasal hayvonlarning oriqlanishi va o'lim darajasining yuqori bo'lishi bilan harakterlanadi.

3. XUSUSIY TADQIQOTLAR

Men Malakaviy Bitiruv ishini Jomboy tumani veterinariya bo'limi vet. laboratoryasi va tuman xo'jaliklarida bajardim.

Jomboy tumani paxtachilikka yo'naltirilgan bo'lib, sakkizta shirkat xujaligidan, uchta dehqon fermer jo'jaligidan iboratdir. Paxta ekin maydoni 800 ga, hasildorligi -31,0 sent. Tumanda yirik shoxli mollar 2560 bosh bo'lib, shu jumladan sigirlar -922 boshni tashkil qiladi, qo'-echkilar 8700 bosh, cho'chqalar 821 bosh, yilqilar 67 boshni tashkil etadi. Tumanda xar bir bosh sigirga sut ishlab chiqarish -1050, go'sht 480 kg. Tumanimiz Samarqand viloyati Jomboy tumani Bulung'ur va Samarqand tumanlari bilan chegaradosh.

Tumandagi barcha xo'jaliklarda xar yili qon-parazitlar kasalliklari avj olib, ancha qoramollarni xalok qiladi, ayniqsa teylirioz kasalligi og'ir o'tadi, buning sababi tarqatuvchi xisoblangan yaylov kanalariga qarnshi o'tkaziladigan tadbirlar rejali va xar doim bo'lmasdan, faqat kasallik chiqqan paytda o'tkaziladi.

Teylireoz nafaqat bahor, yoz va kuz oylarida, balki qish oylarining iliq kunlarida xam uchrab turadi. Bu degani teylireozni tarqatuvchi Hyalomma avlodiga mansub kanalar qishda ham xarakatda bo'liboziqlanish uchun xayvonlarga tashlanadi va kasallik qo'zg'atuvchilarni hayvon qoniga o'tkazadi.

Tuman bosh vetvrachi ta'kidlashicha, qon parazitlari kasalliklari qoramollar orasida xar yili aprel-oktyabr oylarida avjga chiqib, tuman xo'jaliklarida shu kasallik sababli mollarning o'limi va majburiy so'yilishi tez-tez uchrab turadi. Yem-xashakning yetishmasligi sababli, yosh mollar ko'pincha ferma atrofiga va kanna zovurlarning qirg'oqlariga chiqarib boqiladi. Bu esa mollarning xar doim yaylov kanallari bilan bog'lanishga sabab bo'ladi.

Oqibatda kasal mol--- Yaylov kanasi---- Sog'lom mol kanasi uzluksiz ravishda davom etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz o'z oldimizga quyidagi masalalarni yechishni maqsad qilib qo'ydik.

1. Yaylov kanalarining tarqalishini o'rganish.

2. Jomboy tumani xo'jaliklarida mahsuloti hisoblangan «Sipermetrin» pereparatining akarasid ta'sirini o'rganish
3. Qon parazit kasalliklarida maxsus (spesifik) dorilarni ishlatib, ularning samaradorligini taqqoslash.
4. O'tkazilgan chora-tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish.

3.1. Hayvonlarni kasallikdan himoyalashda kanalarga qarshi kurash usullari

Kanalarga qarshi kurash biringidan kasallik tarqatuvchi kanalarni qirib iashlashdan iborat. Mahalliy, tabiiy va xo'jalik sharoitlarini hisobga olgan holda ular hamma rivojlanish davrida turli dorilar bilan qirib tashlanadi. Bu kanalarga qarshi kurash usullari murakkab kollej tadbirlardan iborat bo'lib, kanalarning turiga ham bog'liq.

Kanalarni qirish, shuningdek chorva mollarini kanalar yuqtiradigan kasalliklardan saqlash lozim. Buning uchun kasallik tarqatuvchi kanalarni yo'qotish bilan birga ular tarqatadigan qo'zg'atuvchilar ham yo'qotiladi.

Kanalardan hali qilingan jamoa, shirkat va boshqa xo'jalik territoriyasida ular tarqatadigan pirop plazmidoz kasalliklari ham uchraydi. Veterinariya nuqtai nazardan o'tkaziladigan kompleks tadbirlar uy hayvonlarining tanasidagi, molxonadagi va yaylovlardagi kanalarning qirib tashlashdan iborat.

3.2. Kanalarni mexanik usulda o'ldirish

Mol tanasiga yopishgan kanalarni qo'lda terib yo'qotib turish kerak buning uchun sigirlarni har kuni sog'ganda tanasini tozalaganda va yaylovga haydashdan oldin tekshirib turiladi. Shunda faqat yetuk (imaga) kanalarining topilishi lechinka va lefalar juda kichkina bo'lganligidan ko'rinmay qolishi mumkin.

Mollar ayniqsa molxonada boqilganda mexanik usul qo'llaniladi. Bunda terisini juda sinchiklab tekshirish kerak. Kanalar odatda hayvonlarning bo'yni ko'z atrofi, jag' oralig'i, quloqlarining ichki qirrasini, ko'krak qafasining ichki tomoni,

anus atrofi va dum ildizi hamda umurtqa pog'anasiga yopishadi. Mexanik usulda mollardagi kanani yo'qotish ishonchli tadbir bo'la olmaydi.

3.3. Kanani kimyoviy usulda qirish

Kanalarga kimyoviy usulda qarshi kurashish uchun mollarning tanasiga akarisiid preparatlar sepiladi yoki purkaladi. Havoning issiq yoki sovuqligiga qarab bu pereparat poroshok yoki suyuq eritma holida ishlatiladi.

3.3.1. Quruq usul. Parashok holdagi dori ko'proq lichinka va nimalarni yo'qotishda qo'llaniladi, bu molning tanasiga kuz, qish va erta ko'klamda sepiladi. Buning uchun 7-12 %yem geksoxloran yoki Siperletrin asosida tayyorlangan dustini ishlatish mumkin. Bunda rezinka qo'lqop, cho'tka, dokadan qilingan xaltalar, paroshok dori sepadigan asbob va boshqa buyumlardan foydalaniladi, dorini terining epidermissegga yetkazishga harakat qilinadi. Bu vaqtda ko'z va nafas yo'llarini nihoyatda ehtiyot qilishi kerak. Dori sepish uchun maxsus joy bo'lishi lozim. Dori havo ochiq bo'lsa, ochiq yerda, havo bulutli yoki yog'inli bo'lsa, maxsus ajratilgan bostirmada sepiladi. Har bir molning katta-kichikligiga qarab 12 %li 150-300 g dust sarflanadi.

Yozda qo'ylarda uchraydigan yetuk *Rhipiceplalus luranucus* va qoramollardagi *Boophilus calcatus* lichinkalarini o'ldirish uchun ishlatiladi. Kanalarning oz ko'pligi va ob-havo sharoitiga qarab chorvamollari 7-15 kun ichida dorilanadi. Mollarga dori sepish tugallangach, ortib qolgan dorilar yig'ishtirib olinadi, dori ishlatilgan joy tozalanadi. Kiyimlar esa yaxshilab, issiq suvda yuviladi. Ularning ustki kiyimlari tozalanib, alohida joyda shamollatiladi. Mollarga dori molhonada sepilganda oxiriga va mol og'ziga tushmasligi kerak. Geksoxlorandan liniment va maz tayyorlab ishlatish uchun oldin dori yaxshilab maydalanadi, so'ngra u oz-ozdan olib eritilgan moydan olib aralashtiriladi va obdon eriguncha isitiladi. Geksoxloran aralashmasidan tayyorlangan liniment yoki

maz har bir bosh molga har safar 50-100 g dan surtiladi, bundan ortiq bo'lsa, mol zararlanishi, terisi shikastlanishi mumkin.

3.3.2. Mollarni vannada cho'miltirish yoki suyuq dori purkash

Bu kanalarga qarshi kurashda eng samarali usul hisoblanadi. Bu chora bahorda havo 10-14⁰ga tushgach, to'xtatiladi. Bunda margumushli angidrid eritmasi, xlorofos, geksaxloranning kreolindagi emulsiyasi, sk-9 va polixlorning siperiyetrin, neosidol eritmalari ishlatiladi.

Mollarni cho'miltirish uchun beton yoki temir beton vanna qilinadi. Bu vannaning uzunligi 14 m, chuqurligi mol tanasini suv bosgunga qilinadi, uning atrofidagi tooroq yo'lak qilinadi. Shuningdek vannadan chiqaverishda sementlangan nishob maydoncha ham bo'ladi. Vanna atrofi to'siq bilan to'siladi. Aks holda mol vanna yoniga kelib dorilangan suvni ichsa zaharlanishi mumkin.

3.3.3. Hayvonlarni margimush angidrid eritmasida cho'miltirish

Ximya sanoati natriy arinitni kul rang (kukun) yoki pasta shaklida ko'plab chiqaradi. Bu dori odam va hayvonlar uchun juda zaharlidir.

Kana bosgan chorva mollarini cho'miltirishda margimusht eritmasini faqat vetvrachning o'zi yoki uning rahbarligida vet feldiir tayyorlash mumkin. Bunday kimyoviy dorilar tayyorlanadigan joyga begonalar va mollar yaqinlashmasligi lozim. Bu joyga maxsus qoravul tayinlanadi. Chorva mollarining yaylov kanalariga qarshi margumush angidrid eritmasida cho'miltirish yoki kurakdoshdagi natija eritmaning kuchi bilan kanalarning turiga bog'liq chunki dorilarning bu eritmalarga sezuvchanligi turlicha bo'ladi.

Qoramollar va otlardagi *B.caecaratus*, *H. Detrilum*, *ixodes persulcatus* kabi kanalarni o'ldirish uchun margumush angidritning 0,16 %li eritmasi ishlatiladi.

Shuningdek hayvonlarni har 5-6 kunda margumush eritmasida muntazam cho'miltirib yoki purkash natijasida ma'lum miqdoridagi margumush teri tomirlariga shimiladi va bunday hayvoning qonini so'rgan kanalar ikkinchi

hayvonga piroplazmidiylarni yuqtirish oldidan o'ladi. Shunday qilib yaylov kanalarini o'ldirishda chorva mollarini margumusht eritmasida cho'miltirish samarali usul hisoblanadi. Cho'miltirilganda har bir mol vannada 20 sekund turishi kerak. Bitta molni bir marta cho'miltirish uchun 2-3 litr eritma sarflanadi.

Har safar 5-8 ming mol cho'miltirishgandan so'ng vanna yaxshilab tozalanishi kerak har 400-600 mol cho'miltirilgandan so'ng zarur miqdordagi e'ritma qo'shiladi. Mollar salqin paytda so'miltiriladi. Charchagan va terlagan mollarni cho'miltirish yaramaydi, ularga dam beriladi. Shuningdek terisi jaroxatlangan mollar ham cho'miltirilmaydi. Mollarni cho'miltirishdan avval albatta sug'oriladi. Sog'in ishchilar cho'miltirilgandan ularning tanasi rosa qurib yalini yuvilib, artulmaguncha buzoq yaqinlashtirilmaydi.

Kanalarga qarshu kurashda yana dori eritmasini purkash. Shuningdek, ularning terisini eritma sepib ishqalash, usullari ham qo'llaniladi. Qoramol va otlarning tanasiga dori purkashda VMOK-1, DUK, LSD-2, ONK markali shtanga va gidropult shuningdek "Pamona" va "Iftamaks" markali apparatlardan foydalaniladi. Xayvonlarga suyuq eritma purkash va uning tanasini dori eritmasi bilan ishqalash uchun maxsus joy ajratilgan bo'lishi kerak.

Xayvonlarga margumusht angidirit eritmasini shunday mo'ljal bilan purkash kerakki, eritma gidropulti to'ppa to'g'ri xayvon junining orasiga tegsin. Mollarni margumusht angidrit eritmasi solingan suvga cho'miltirilganda, shuningdek, ularga bu eritmani purkaganda yoki u bilan ishqalaganda eritmaning % tegishli darajada lozim.

Eritma % normadan oshib ketsa u xolda xayvonning terisi kuyishi ekzema va dermatit paydo bo'lishi o'lishi mumkin. Aksincha bo'lsa kanalarga ta'sir qilmasligi mumkin. Ishlatish oldidan eritma foizini arimetr yoki byuretkka usuli bilan titirlab tekshirib turiladi.

3.3.4. Chorva mollarini boshqa xil akarisid preporatlar bilan dorilash

SK-9 preporati xlorlangan skipidarning texnik moyli aralashmasidan iborat bo'lib, o'yuvchi natriy eritmasidan neytrallashtirilgan SK-9 preporatining tashqi ko'rinishi shilimshiq, moysimon qora suyuq moddadan iborat, o'ziga xos xidi bor. Suv qo'shilsa yaxshi aralashib sarg'ish oq emulsiya xosil qiladi.

Mollarda kanaga qarshi cho'miltirish yoki ularning tanasiga purkashda bu pereporatning suvga aralashtirilgan emulyasiyasi ishlatiladi. SK-9 pereporatidan emulyasiya tayyorlangandan 16⁰-18⁰ dan 40⁰ gacha issiq suv ishlatiladi. Bu dori 16⁰ dan past bo'lgan suvda yaxshi erimaydi. 40⁰ dan ortiqroq ishlatilgan suvda esa uning tarkibi buzilib, ta'sir kuchi yo'qoladi. Dastlab bu pereparatning quyuq eritmasi tayyorlanadi. Buning uchun 3 xissa pereporatga 1 xissa suv qo'shiladi. So'ngra ungacha quyuq qaymoqsimon massa xosil bo'lguncha suv qo'shiladi. Bu dorilash uchun tayyor emulyasiya hisoblanadi.

Mollar SK-9 preporati bilan kanaga qarshi xar 5-7 kunda bir marta cho'miltirilib turiladi. Mallarni vannada cho'miltirish uchun SK-9 pereporatining 1%li ularga dori purkash yoki tanasini dori bilan ishqalash uchun esa 3%li emulyasiya ishlatiladi. Preporat suvga aralashtirilganda betiga moy suzib chiqsa uni olib tashlash lozim.

3.3.5. Polixlorpinen

Bu pereporat xlorlangan terpenlar guruppasidan xisoblanib qoramtir yopishqoq bo'ladi. Bu pereporat sanoatda mineral moyda eritilgan 65 %li emulyasiya hamda salyar moyiga qo'shib 50%li qilib tayyorlangan emulyasiya shaklida chiqariladi. Mollarni kanaga qarshi dorilashda mineral modda eritilgan emulyasiya ishlatiladi. Bu pereporatning suyuq eritmasi yuqorida bayon etilgan dori singari tayyorlanadi. Mollarning tanasiga bu dorining 2-3%li eritmasidan 5-7 kunda yuir marta purkaladi. Kanalarga qarshi cheksoxlaran-kreolin emulyasiyasini ham ishlatish mumkin. Lekin bu dorilarni sog'in sigirlarga shuningdek go'shtga topshiriladigan mollarning so'yilishiga 30 kun qolganda purkash to'xtatiladi.

Chunki mol organizmida cheksoxlaran ko'p vaqtgacha saqlanadi, sog'in sigirlarda esa bu dori uning suti tarkibiga o'tishi mumkin. Xayvonlarning tanasiga dori mexanizm vositasida yoki DUK, ODN, "Shtonga", "ONK" va boshqa markadagi aparatlar yordamida purkaladi. Qishda va kuzda mollarga Hyalomma, detrilum kanasining lichinka va nimmalariga qarshi dori purkash uchun iksoxlaran do'stining 12 %li eritmasini ishlatish mumkin. Bu dori har oyda bir marta purkaladi. Mollarni kanalarga qarshi xlorafos eritmasi bilan xashoratlardagidek dorilash ham oxirgi yillarda neosiodol, sipermetring dorilari bilan mollarni cho'miltirish yaxshi natija bermoqda.

Yaylov va molxonalaridagi kanalarga qarshi kurash choralari

Teylerioz kasalligini kanallarni qirib yo'q qilish juda qiyin ammo fan va ishlab chiqarishda erishilgan yutuqlarga to'g'ri amal qilinganda bunday kanallarni qirib tashlash mumkin bo'ladi. Kanalar molxonalarda shuningdek yaylovlarda yashab ko'payadi. Zax binolar yavvoyi o'tlar o'sgan joylar ular uchun qulay joy xisoblanadi, bunday joylarda ular ayniqsa ko'p bo'ladi. Binobarin tanalar uchun tashqi muxit sharoitini o'zgartirib noqulay sharoitga aylantiriladi. Shu yo'l bilan ular turli rivojlanish stansiyasida qirib yo'qotiladi.

O'zbekiston sharoitda ham kanallarni butunlay yo'qotish mumkin. Buning uchun tabiatni o'zgartirish ya'ni dexqonchilikni intensiv ravishda rivojlantirish, quruq yerlarni o'zlashtirish chopiq talab ekinlar ekish va boshqa agrotexnika hamda meleorativ tadbirlarni amalga oshirish lozim. Shunda kanallarning ko'payishi uchun qulay bo'lgan bioekologik sharoit tub tomiri bilan o'zgaradi.

Bu choralar teylerioz va fransanilez kasalliklarini yuqtiradigan bir egalik. V salcaratus nomli kanallarni qirib tugatishda samarali natija beradi. Sababi bu kanallarning butun rivojlanishi sikli bir xayvonda kechadi. Bu esa mollarning tanasida akarisid dorilar purkash yoki ularni cho'miltirish yo'li bilan shuningdek, agrotexnika va meleorativ tadbirlarni o'tkazib kanallarni yo'qotish hatto butunlay tugatishga imkon beradi. Teylerioz va fransaillez kasalliklariga ta'sirchan mollar og'ilda boqilganda ularni kasallik yuqishidan saqlab qolish mumkin. Chunki bu

kasallikni yuqtiradigan kanalar molxonada bo'lmaydi, ular asosan nam zax yaylovlarda yashaydi.

Shuning uchun mollar og'ildi boqilganda bu xil kasallik kamdan kam xolda uchraydi. Og'ilda boqiladigan mollar orasida bu xildagi kasalliklarni molxonaga keltirilgan o't yoki quruq xashak bilan *B.calkaratus* kanalari kirib qolgan taqdirdagina uchratish mumkin. Temrioz kasalligini yuqtiruvchi *H.detrilum* va *H.anatolicum* kanalari yuqorida aytilganidek molxonada xam yaylovlarda xam ko'payaveradi. Shuning uchun mollarni boylab qo'yish yo'li bilan ularni teylerioz kasalligidan saqlash mumkin emas. Teyleriozni yuqtirgan *H.detrilum* kanalarining lichinkalari molda yetishib nimfaga aylanguncha (20-25 kun) uning qonini so'rib yashaydi, bir qismi esa xayvon tanasidan tashqi muxitga o'tadi. Nimfalarning uzoq vaqt xayvon tanasida bo'lishi ularni akrisit dorilar vositasida yo'qotishga imkon beradi. Kuz qish va erta baxorda mollarga 3-4 martta tearat eritmasi purkaladi yoki tanasiga pastka surkab ishqalanadi. Shundan so'ng kanalar juda kamayadi. Yetuk kanalar molga may oyining oxiridan boshlab sentyabrgacha yopishi mumkin. Binobarin mol tanasidagi kanalarga qarshi kurash tadbirlari yoz oyida xam o'tkazilishi kekrak.

H.anatolicun asosan molxonada bo'lib o'zlarining turli rivojlanish davrida ana shu yerda molga yopishadi. Molxonadagi kanalarni yo'qotish uchun bu yerga dori sepiladi. Buning uchun odatda tarkibida 1%li texnik cheksoxlaran yoki BDT va 5%li preolin bo'lgan emulyasiya bilan polexlorpinenning 3-5 %li emulyasiyasi bilan xlorofosning 5%li eritmasi ishlatiladi. Binoning ichini dorilash uchun keyingi ikkita pereporat ishlatiladi. Molxonaning dezakarinizasiya qilishdan DUK, ONK markali va boshqa changlagichlardan foydalaniladi. Bu changlagichlar ishlatishdan oldin bino yaxshilab tozalanishi lozim. A.M.Nesiskiy ishlab chiqqan metodga binoan molxonaga birinchi martta mart oyida mollarga kana tushmasdan oldin ikkinchi martta esa may iyun oylarida dori sepiladi.

Mol boqiladigan joydagi xamma binolarga dori sepish kerak. Devorlardagi tirqish va yoriqlarga ayniqsa ko'proq dori sepish kerak. Chunki bunday joylarda

kanalar juda ko'p bo'ladi. Ular shu joyda urchib ko'payadi. Molxonalarga dori purkash tugallangandan so'ng devor tirqishlari va yoriqlari 12 %li cheksoxlaran do'sti aralashtirilgan (10:1 nisbatga) loy bilan shuvab bektiladi so'ngra bino shamollatiladi.

Mollarni kana yuqmagan yaylovlarda boqish xam kanalarni yo'qotishga qaratilgan kurash tadbirlaridan biridir. Mollarni o'tlatish uchun 1-2 yil tashlab qo'yilgan ayniqsa tanasini kana bosmagan jaydari mollar o'tlatilmagan yaylovlar tanlanadi mollar yaylovda boqilayotganda kanna paydo bo'lishiga qarshi tadbirlar qo'llaniladi.

Dengiz satxidan 144-1700 m balandlikda tog'li yaylovlarda pirop plazmidoz kasalligini tarkatuvchi kanalar bo'lmaydi. Shuning uchun yozda pirop plazmidoz kasalliklariga moyil bo'lgan, ayniqsa o'zga rayonlardan keltirilgan mollarni baland tog'li rayonlardan keltirilgan mollarni baland yaylovlarda boqish kerak.

Mollarni yaylovga haydaganda yo'lda kanna yopishib qolmasligi uchun ularni sog'lom yo'ldan haydash yoki yaylovga xaydalggunga qadar oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish lozim, yaylovdagi mollar xar kuni tekshirilib turiladi, ularga kanna yopishgani ma'lum bo'lsa, terib olib yo'qotiladi. Biror bir molning kasallanganligi sezilsa, u darhol davolanadi. Ba'zan ximiyaviy kurash tadbirlari qo'llanilganda bereden yoki azidin pereparatini ishlatish yaxshi samara beradi.

4. XO'JALIKLARDA MOLLARGA KANA TUSHUSHINI OLDINI OLISH.

Teylireoz kasalliklarini yuqtiruvchi kanalar kanna bo'lmagan xo'jaliklardagi mollarga bu zararkunanda boshqa rayondan keltirilgan moldan o'tishi mumkin. Bunda kanna bosgan molgina kasallanib, qolmay balki u bilan bir joyda boqilayotgan jaydari mollar xam og'riydi.

Shuning uchun sog'lom xo'jaliklarga kanna bosgan mollarni keltirish qat'iy taqiqlanadi. Boshqa xo'jaliklardan mol olish zarur olish bo'lganida, mol kelirilishi bilanoq ularni kanaga qarshi dorilash lozim.

Teylireoz kasalliklari uchrab turadigan xo'jaliklardan keltirilgan mollar 15 kungacha karantin qilinadi. So'ngra yaxshilab tekshirib kanaga qarshi ikki marta dorilanadi. Shundan keyingina bunday mollar xo'jalik podasiga qo'shiladi.

Mollarni prioplazmidoz kasalligini tarqatuvchi zararkunandalardan saqlash uchun kana tarqalgan xo'jaliklardan mol keltirish cheklangan bo'lishi kerak.

Teylireoz bilan kasallangan mollar uzoq vaqt kasallikni yuqtirish mumkin, bu xususiyat teylireoz kasalligiga ta'luqli, chunki, teylireoz kasalligining qo'zg'atuvchisi teyleria mol organizmida uzoq yil saqlanadi.

Teylireoz va fransailiz kasalliklarining qo'zg'atuvchilari esa ko'pi bilan bir yilgacha saqlanadi. Shuning uchun kasallikka moyil mollarni jaydari mollardan alohida boqish va ularni doimo dorilab turish lozim

Keyingi vaqtlarda berinil preparatining piroplazmoz kasalligiga qarshi yuqimli piropiazmidiylardan tozalash chususiyati aniqlandi. Shuning uchun mollar baranil yoki azidin priparati bilan qo'shicha ravishta dorilanishi kerak. Ayrim xo'jaliklarda hatto rayonlarda ham yuqortda kursatilgan tadbirlar natijasida teylirioz, piroplazmoz, fransillez kasalliklari kamayyapti.

4.1. Yaylov kanalarining tarqalishini o'rganish.

Pirop plazmidozlarning qo'zg'atuvchilarini yuqtiruvchi kanalarining aralash mavsum davomida tumanning barcha xududlarida mollarda kanalaritng rivojlanish davrining nimfa va imago bosqichlarida terish, ularning avlodlari va turlarini aniqlash asosida o'rganiladi.

Olib borilgan izlanishlar natijasida Jomboy hududlarida tarqalgan kanalarining 45 % *Hyalomma anatolicum*, 21 % *Hyalomma detritum*, 37 % *Boophilus calcaratus* kanallari tashkil qilganligi aniqlandi.

Bu ishlarni bajarishda tuman vetlaboratoriyasi xodimlari va SAMQXI «Xayvon kasalliklari va parazitologiya» xodimlari kata amaliy yordam berdilar. Ularga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

Shunday qilib Jomboy tumani xududlarida teyleriozni tarqatuvchi *Hyalomma anatolicum* va *Hyalomma detritum* xamda Tiroplazmoz va *Boophilus calcaratus* kanalari tarqalganligi ma'lum bo'ldi.

4.2. «Sipermetrin» pereparatining akarasid ta'sirini o'rganish

Jomboy tumani veterenariya bo'limining ma'lumotlari shuni ko'rsatayaptiki, fermer xo'jaliklaridagi qoramollar kanalarga qarshi Neosidol, Silibush yoki Kreolin pereparatlarining erimtmalari bilan cho'miltirilar ekan. Ammo bu pereparatlarni o'z vaqtida olishga mablag' bo'lmaganligi sababli, mollarni cho'miltirish 35-40 kunga bir marotabaga to'g'ri kelgan, bu esa mollarni kanalardan saqlashga imkon bermagan va ko'p mollar kasallanishiga yo'l qo'yilgan. Bundan tashqari bu pereparatlarning narxi xam ancha qimmat edi. Kasal mollar Berenil yoki Azidin pereparatlari bilan davolanganlar, shunday bo'lsa ham kasallik o'tkazib yuborildib, davolanganligi uchun samaradorligi past bo'lgan, oqibatda kasal molning oriqlab ketishi va majburan so'yilishi ko'p bo'lgan, o'lim xam bo'lib turgan.

Tumang bosh vetvrachining ta'kidlashicha xama xo'jaliklar qoramollari orasida qon parazit kasalliklari orasida qon parazit kasalliklari keng tarqalgan,

chunki xo'jaliklarda yem-xashak uchun ajratilgan yer maydonlari oz bo'lib, ozuq yetishmasligi oqibatida xayvonlarni nafaqat issiq kunlari, balki qish oylarida xam mol dalaga (paxta dalalariga), kanal-zovur atroflariga, yozda g'alladan bo'shagan maydonlarga haydab boqiladi., bu esa yaylov kanallarining uzluksiz mol bilan bog'lanishiga olib keladi.

Tuman bosh vetvrachi bilan maslahatlashib, «Jomboy» shirkat xo'jaligida qoramollarni kanallarni xujumdan saqlash va buning oqibatida kelib chiqadigan qon parazitlar kasalliklarini oldini olish maqsadida Navoiy ximzavodjida ishlab chiqarilgan «Sipermetrin» pereparatini ishlatib ko'rishni va ma'qul bo'lsa boshqa xo'jaliklarda xam ishlatishni rejalashtirardik, chunki bu pereparat Neosidolga nisbatan besh barobar arzon edi. Bundan tashqari hamma vaqt ham topilaveradi.

Sipermetrin-to'q qizil (qo'ng'ir) rangli suyuqlik bo'lib, spesifik hidga ega, suvda eritilganda sut rangli suyuqlikka aylanadi. Pereparatning 1 ml bir litr suvda eritilib, mollarni cho'miltirish uchun ishlatiladi. Bu pereparatlarning hashoratlarga va kanalarga ta'sir kuchi O'z VITI laboratoriya mudiri, veteranariya fanlari doktori Xaitov V.R. tomonidan o'rganilgan bo'lib, go'sht va sut mahsulotlariga ta'sir qilmaydi. (sog'ishdan oldin sigir yelinlari issiq suvda yuviladi)

Bu eritmadan yosh mollarga 1-1,5 litr, kata mollarga esa 2-3 litr sarflanadi. Mollarni cho'miltirishda 10 litr xajmga ega bo'lgan gidropulstdan foydalandik.

Mollarni issiq kunlari ertalab, yaylovga haydashdan oldin yoki kunduzgi dam olishdan keyin cho'miltirdik.

Mollarni cho'miltirganda sepermetrin pereparatining kanallardan tashkari chivinlar, pashshalar va bitlar ham o'ladi. Cho'miltirilgan mollarni so'yishga besh kun o'tgach ruhsat beriladi, sigirlarning sutlari esa shu kunning o'zida ishlatilishi mumkin (chegaralanmaydi).

Kerak bo'lgan Sepermetrin konsentranti quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$X = \frac{A * B}{C}$$

X-ishchi eritma tayyorlash uchun kerak bo'lgan 25 % li Sipermetrin konsendrat miqdori

A- kerakli ishchi eritmaning konsenrasiyasi (0,025%)

V-kerakli ishchi eritma miqdori

S-pasportda ko'rsatilgan Sipermetrin konsendratsiyasi (25 %)

Masalan: 100 litr ishchi eritma tayyorlash uchun 25 % li Sipermetrin konsendratidan qancha kerak?

$$X = \frac{0,025 * 100}{25} = \frac{2,5}{25} = 0,1 \text{ кг (100 гр)}$$

Demak, 0,025 % li 100 litr ishchi eritma tayyorlash uchun 25 % li Sipermetrin konsendratidan 0,1 kg olish kerak. Tayyorlangan eritmaning temperaturasi 15-20⁰, xavo temperaturasi esa 10-12⁰ iliqlikdan kam bo'lmasligi kerak.

Mollarni cho'miltirish vetvrach nazorati ostida, maxsus himoyalash vositalari kiygan vetfeldsher yoki vetsanitar tomonidan o'tkaziladi. (xalat, ko'z oynak, rezina etik va qo'lqop). Ish davomida chekish va ovqatlanish man etiladi. Ish tomom bo'lgach himoyalash buyumlari 3-5 % li kalsiylangan soda eritmasida yuviladi, keyin suvda yuvilib quritiladi.

Biz xo'jaligimizda 270 bosh qoramol bo'lib, shulardan 100 boshi sigir va g'unojinlar 170 boshi, esa 1-2 yoshli buzoq (tana) lardir.

Xo'jalikda xar yili qon parazitar kasalliklari uchrab turishi munosabati bilan mollar kanalarga qarshi cho'miltirib turiladi, kasal bo'lganlari esa speseffekt dorilari bilan davolanadi.

Mollarni cho'miltirish may oyidan boshlanagan bo'lib, biz iyun-oktyabr oylari davomida bu ishni bajardik. Xar cho'miltirishda 560 litr Sipermetrinning ishchi eritmasini tayyorlab sarflar edik.

Ya'ni, xo'jalikda 270 bosh mol soni; 100 bosh kata mollar ($100 \times 3 = 300$ litr) xar qaysisiga 3 litrdan; 170 bosh tanalar ($170 \times 1,5 = 255$ litr) 1,5 litrdan.

$$X = \frac{0,025 * 560}{25} = 0,56 \text{ кг (Циперметрин)}$$

Yoki 560 litr ishchi eritma tayyorlash uchun 25 % Sipermetrin konsendratidan 0,56 kg olib, iliq suvda asta-sekin eritiladi, tayyor bo'lgan sut rangidagi dori 10 litr maxsus gidropult yordamida mol cho'miltiriladi.

Biz mollarni peshinda dam olib bo'lgach cho'miltirib, so'ng boqishga chiqarib ketishar edi, chunki yem-xashakning yetishmasligi oqibatida hamma mollar ferma atrofidagi tabiiy yaylovlarga chiqarilar edi, yaylov esa kanalar makoni bo'lib, mollarni cho'miltirmasa kasallik juda xam ko'p bo'lishi mumkin. Mollar xar hafta, 7 kunda bir cho'miltirilsa xam qon parazitar kasalliklari uchrab turadi.

Butun yoz may-oktyabr oylarida 10 ta molning kasallanganligini guvohi bo'ldik, shundan bittasi o'ldi, bittasi so'yib olindi, chunki azidin pereparatidan boshqa dori yo'q edi. Yurak ishini yaxshilaydigan oshqozon ichak sistemasini xarakatlantiradigan ovqat xazm qilishga yordam beradigan dorilarga xo'jalik umuman pul ajratmas edi. Kasal mollarga ayron ichirish, sut ichirish, salqin joyda saqlash bilan chegaralanadi.

Kasallikdan ko'rilidigan iqtisodiy zarar va o'tkaziladigan tadbirlarning samaradorligi

Qon parazitar kasalliklaridan ko'riladigan iqtisodiy zarar kasal molning mahsuldorligining pasayishi majburiy so'yish yoki molning o'limi hamda kasal molning uzoq muddat davolashga ketadigan xarajatlardan iborat.

May oyidan oktyabr oylari davrida xo'jaligimizda 10 bosh qoramol qon parazitar kasalligi bilan kasallandi, bu xo'jalikdagi barcha qoramolning 3,7 % ni tashkil qiladi.

Kasallik koyfisientini (K_K) quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$K^K = \frac{M_K * 100}{M_0}$$

M_K - kasallangan mol soni

M_0 - jami mol soni

$$K^K = \frac{10 * 100}{270} : 100 = \frac{1000}{270} : 100 = 2,7$$

10 ta kasallangan moldan bittasi o'ldi va keltirilgan zarar quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Z_{O'} = O'MS * SB$$

$Z_{O'}$ – zarar o'lim oqibatida

$O'MS$ - o'lgan mol soni

SB – bir bosh molning balans narxi

$$Z_{O'} = 1 * 150000 = 150000 \text{ so'm}$$

Jami kasallangan mol 10 ta bo'lib, shundan 8 tasi tuzalgan bo'lsa xam juda oriqlab ketdi. Xar bir mol o'rtacha 15 kg oriqladi. Ya'ni $15 \text{ kg} * 8 = 120 \text{ kg}$ pereves yo'qotiladi, 1kg perevesga 300 so'm haq to'lanadi: $120 \text{ kg} * 300 \text{ so'm} = 36000 \text{ so'm}$ zarar.

Kanalarga qarshi kurashish maqsadida mollar sipermetrin bilan 10 marotaba cho'miltiriladi, xar safar 0,56 kg dori sarflanadi.

$0,56 * 10 = 5,6 \text{ 1kg}$ Sepermetrin 6000 so'm, ya'ni $6000 * 5,6 = 33.600 \text{ so'm}$
jami ko'rilgan zarar: o'lim-150.000+ pereves-36000 = 186.000

Qon parazitlar kasalliklarida mollarni kanalarga qarshi cho'miltirish eng asosiy profilaktik tadbirdan hisoblanadi. Shu bilan birgalikda mollarni ximoprofilaktika maqsadida 20-25 kunda Azidin, Berenil yoki boshqa maxsus dorilar bilan emlab turilsa mollarning kasallanishi va o'limi bo'lmasligi mumkin edi, demak xo'jalik yuqorida ko'rilgan zararga ega bo'lmas edi. Yoki kasallikning oldini olish uchun sarflangan xar bir so'mga 5,5 so'mdan samara olish mumkin ($186.000 : 33.600 = 5,5$).

5. VETERINARIYA ISHINI TASHKIL ETISH VA UNING IQTISODI.

Respublikamizda mustaqillikka erishish bilan barcha sohalardagi kabi veterinariya ishini tashkil etish va bu tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga katta e'tibor berilmoqda 1993 yilda «Veterinariya to'g'risidagi qonun»ning qabul qilinishi yaqqol isbotidir, bu qonun 5 ta bo'lim, 23 ta moddadan iborat.

Samarqand viloyati Jomboy tumanida veterinariya tadbirlari rejali ravishda olib boriladi. Tuman veterinariya bo'limida bo'lim boshlig'i, uning muovini, vrach epizootolog, vrach terapevt, apteka mudiri, hisobchi va veterinariya uchastkalarida uchastka boshliqlari, vet texniklar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Tumanda veterinariya laboratoriyasi mavjud bo'lib, uning serrologik, bakteriologik, parazitologik, ximiotoksikologiya, virusologiya bo'limlari mavjud. Tumanda veterinariya inspektori vazifasini tuman veterinariya bo'lim boshlig'i bajaradi.

Bulardan tashqari bozorlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini vetsanekspertizasi bo'limlari mavjud bo'lib, tuman veterinariya xizmati (bo'yicha) Davlat byudjeti tomonidan, hamda mahalliy byudjetlar hisobiga mablag'lar bilan ta'minlanadi.

Veterinariya tashkilotlari hayvonlar va fermalarda qo'yidagi jurnallar yuritiladi:

1. Kasal hayvonnni qayd qilish jurnali shakl № 1-vet
2. (Tuman) epizootologiyaga qarshi tadbirlarni qayd qilish jarnali (shakl № 2-vet)
3. Tuman epizootik holatini qayd etish jurnali (shakl № 3 vet).

Jomboy tuman vet san ekspertiza laboratoriyada esa:

1. Go'sht, baliq, tuxum VSE shakl № 23-vet
2. Sut va sut mahsulotlari VSE shakl № 24-vet

3. O'simlik ozuqa maxsulotlari VSE № 25-vet

4. Asal VSE shakl № 26-vet

Veterinariya laboratoriyasida bakteriologik tekshirishlar jurnali. (Shakl № 12-vet).

Virusologik tekshirishlar jurnali shakl № 13-vet

Qonni serologik tekshirish jurnali shakl № 14 –vet

Teri va junni kuydirgi kasalligiga tekshirish jurnali (shakl №7-vet).

Hayvonlarni parazitlar kasalliklarga tekshirish jurnali shakl № 18-vet va boshqalar yuritiladi.

Tuman veterinariya bo'limi oyiga 1 marta viloyat veterinariya boshqarmasiga qo'yidagi hisobotlarni topshiradi:

1 shakl. № 1 –vet «Hayvonlarni yuqumli kasalliklari to'g'risida hisobot» (oylik, chorakda)

2 shakl. № 2 –vet «Hayvonlarni yuqumsiz kasalliklari to'g'risida» hisobot (har yarim yilda bir marta)

3 shakl. №3-vet «Baliq kasalliklari tug'risida xisobot» (yiliga bir marta)

4-shakl. №4-vet «Veterinariya laboratoriyalari ishi to'g'risidagi xisobot (yiliga bir marta)

5-shakl №5-vet So'yish punktlari va sanitariya ekspertiza laboratoriyalarining ishi to'g'risida hisobot» (yarim yilda bir marta)

Tuman fermer xo'aliklarida idoraviy veterinariya xizmati joriy etilgan bo'lib, tuman veterinariya bo'limining tarkibiy qismi xisoblanadi. Xo'jalikda veterinariya xizmati veterinariya vrachi va veterinariya feldsheri tomonidan amalga oshirilib, xo'jalik ishlarida faoliyat ko'rsatadi.

Xo'jalikda 1ta veterinariya vrachi ko'rsatadi. Bular quyidagilarni amalga oshiradilar:

- Xo'jalik ma'muriyati va boshqa mutaxassislari bilan xamkorlikda chorva mollarining sonini ko'paytirish, mahsulot va xom-ashyo ishlab chiqarish miqdorini oshirish.

- Xo'jalikda mavjud xayvonlarning doimiy kurikdan utkazish, rejalashtirilgan profilaktik va veterinariya sanitariya tadbirlarini amalga oshirish, kasal mallarni aniklab ajratish va davolash.

- Xo'jalikda O'zbekiston Respublikasi «Veterinariya to'g'risida»gi konunga amal kilish.

- Aholini zooantroponozlardan muxofaza qilish ishlari o'z vaqtida bajarilib turiladi.

Chorvachilik obyektlari devor bilan uralgan, kirish joylarida Veterinariya sanitariya o'tkazish punktlari, dezobaryer va dezomatlar o'rnatilgan. Shuning uchun keyingi 4-5 yilda xo'jalikda yuqumli kasallik kayd etilmagan.

Tumanda pullik veterinariya hisob-kitoblari ishi o'z vaqtida olib boriladi. Xususiy veterinariya xizmatini tashkil etish shakllari va tartibi quyidagicha bo'ladi:

Shakllari

- Zoovet punktlar
- Kichik korxonalar
- Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar
- Firmalar
- Veterinariya dorixonalari

II. Tartibi:

- Tuman yoki shahar hokimi nomiga ariza;
- Tashabbuskor guruhning majlisi bayonidan ko'chirma;
- Guruh a'zolarining ro'yxati;
- Bo'lajak muassasaning nizomi;
- Tuman (shahar) hokimining qarori va ro'yxatga olish;
- Muhr va shtamp yasatish;
- Bankda hisob raqam ochish;
- O'zRDVBB ning «LISENZIYA» sini olish;
- Shartnomalar tuzish va faoliyat ko'rsatish.

**Lisenziya olish uchun lisenziya talabgori lisenziyalovchi organga
quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

1. Lisenziya berish to'g'risidagi ariza, unda quyidagilar ko'rsatiladi:
Yuridik shaxs uchun yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bank muassasasidagi hisob raqami;
Jismoniy shaxs uchun familiyasi, ismi, otasining ismi, fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari;
Yuridik yoki jismoniy shaxs amalga oshirishi mo'ljallanayotgan veterinariya faoliyati ishlari turlari hamda ko'rsatib o'tilgan faoliyat turi amalga oshiriladigan muddat.
2. Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi yuridik shaxslar uchun; yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatidan o'tkazganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi jismoniy shaxslar uchun.
3. Xududiy davlat veterinariya organining mavjud binolar va asbob-uskunalarining veterinariya talablariga muvofiqligi hamda lisenziyalanadigan veterinariya faoliyati turini amalga oshirish uchun shart-sharoitlarini mavjudligi to'g'risidagi xulosa.
4. Xududiy sanitariya epidemiologiya nazorati organining veterinariya faoliyatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan binolarning sanitariya normalari va qoidalariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi.
5. Lisenziya talabgorida veterinariya faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar va apparaturalar ro'yxati.
6. Veterinariya muassasasi rahbarining mehnat daftarchasi va oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomining notarial tasdiqlangan nusxalari, shuningdek uning tayinlanganligi to'g'risidagi buyruqning nusxasi yuridik shaxslar uchun.
7. Yuridik shaxs xodim veterinariya mutaxassislari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorinng (diplom, malaka oshirish, ixtisoslashuvdan o'tish

to'g'risidagi hujjatlar, mehnat daftarchasining notarial tasdiqlangan nusxalari) malakasining tasdiqlangan hujjatlar.

8. Lisenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun (eng kam oylik ish haqqining 4 baravari miqdorida) yig'imni tasdiqlovchi hujjat.

9. Lisenziya berganligi uchun eng kam oylik ish haqqining o'n baravari miqdorida davlat boji undiriladi. Davlat boji mahalliy byudjetga o'tkaziladi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2003 yil 3 noyabrdagi 479-sonli «Veterinariya faoliyatini lisenziyalash to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida» gi qarori.

6. QORAMOLCHILIKDA ISHLAB CHIQRISHNI TASHKIL ETISH

O'zbekiston qishloq xo'jaligida chorvachilik asosiy tarmoqlardan biri bo'lib, uning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i 50 foizdan ortiqni tashkil yetadi. Bozor iqtisodiyoti davrida chorvachilikni jadal rivojlantirishni imkoniyatlari, avvalambor chorvachilikni xususiy-lashtirish va ixtisoslashgan o'rta va kichik fermalarni kuchaytirish, shirkat, fermer va aholining shaxsiy xo'jaliklarida ilg'or tajriba, yangi texnologiyalar va fan yutuqlaridan oqilona foydalanishga qaratilishi lozim. Bunda xo'jalik yuritishning yangi usullari va samarali ishlab chiqarish tizimlarini ishga solish bozor iqtisodiyoti uchun ayni muddaodir.

Chorvachilikni rivojlantirishda shirkat va xususiy dehqon xo'jaliklarining fermalarini qayta shakllantirish va barqaror taraqqiy yettirish bilan nodavlat chorvachilikni jadallashtirish va ixtisoslashtirish asosiy omillardan hisoblanadi.

Chorvachilikning istiqboldagi rivojlanishi hukumatning qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan strategiyasi - «1998 - 2000 yillarda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Dasturi»ni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida o'z aksini topgan. Bu dastur fermer xo'jaliklarini tashkil yetish, chorvachilikni xususiylashtirish, mulkchilik shakllarini va tadbirkorlikni rivojlantirish hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida raqobatchilik muhitini yaratishga va raqobatni kuchaytirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda chorvachilikni jadal rivojlantirish asosida, uning samaradorligini oshirishning barcha tashkiliy, iqtisodiy va qonuniy hujjatlari, me'yoriy asoslari yaratilgan. Bu soha, asosan 5,6 ming chorvachilik fermer xo'jaliklarida va 3,7 mln. shaxsiy tomorqa xo'jaliklarida rivojlantirilib mavjud qoramollarning 66,1 foizi, shu jumladan sigirlarning 90,0 foizi bundan tashqari, qo'y va yechkilarning 76,4 foizi va parrandalarning 58,7 foizi dehqon xo'jaliklari ixtiyorida bo'lib, chorvachilikni xususiy mulkka aylantirilishiga iqtisodiy asos yaratilmoqda. Ta'kidlash kerakki mamlakatimizda ishlab chiqariladigan go'shtning 91,1 foizi, sutning 93.6 foizi va tuxumning 63 foizi umuman olganda, qishloq

xo'jalik mahsulotlarining 60-63 foizi xususiy tomorqa xo'jaliklaridayetishtirilmoqda.

Fan va amaliyot xodimlarining fikricha chorvachilikning rivojlanish darajasi va xususan mollar mahsuldorligi 60-65 % yem-xashak ta'minotiga va 20-25 % naslchilik ishlariga bog'liqdir. Shuning uchun ham chorva tnollarining oziqa bazasi va zotini yaxshilamasdan, chorvachilikdagi texnologiyani takomillashtirib yangilamasdan, yuqori unumli mashina va jihozlarni, mehnatini tashkil yetish va moddiy manfaatdorlikni ilg'or usullarini ishlab chiqarishga joriy yetmasdan tannoqni jadal rivojlantirish mumkin yemas. Hamma narsa moddiy va mehnat resurslarining qanday darajada mavjudligiga, \^uuayyan rivojlanish yo'nalishlariga, ular o'rtasidagi muvozanatga mos kelishiga bog'liq. Chorva mollarinrng zotini va nasldorlik xususiyatlarini yaxshilamasdan faqat sonini oshirib borish chorvachilikni yekstensiv yuritishning aynan o'zidir.

Chorvachilikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, unda ishlab chiqariladigan mahsulot bevosita hayvonlar organizmidan olinadi. Shuning uchun chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish, chorva mollarining biologik xususiyatlaridan qanday foydalanishga bog'liq. Bu biologik xususiyatlar quyidagilardan iborat:

turli chorva mollarining naslini o'sish tezligi va yetiluvchanlik darajasi har xil bo'ladi. Masalan, buzoq vaznining o'sish tezligi, u bir yoshga yetg'uncha 8,5-9,0 marta, qo'ziniki 15-20 marta, cho'chqa bolalariniki 125-150 martani tashkil yetadi;

chorva mollarining iste'mol qilgan oziqalarining hazmlanish va mahsulotga aylanish darajasi turlicha bo'ladi. Masalan, cho'chqalarda iste'mol qilingan har 100 kg oziqa birligining 35 foizi ularning tanasida go'sht va yog'ga aylansa, qoramollarda yesa faqatgina 14 foizi hazm bo'lib mahsulotga aylanadi, pirovard natijada, qoramolchilikda 1 kg go'sht ishlab chiqarish uchun cho'chqachilikka nisbatan 2 marta ko'p oziqa birligi sarflanadi;

chorva mollari birinchi qochirish yoshi va bo'g'ozlik davrining uzun, qisqaligi bilan ham farqlanadilar. Masalan, cho'chqalar birinchi marta 8-9 oyligida, qoramol va qo'ylar 18 oyligida qochiriladi, demak cho'chqalar boshqa chorva mollariga nisbatan 2 marta tez yetiluvchan.

Chorva mollari, go'sht so'yim chiqimining yuqori va pastlikda rejasi bilan ham bir-birlaridan tafovutlanadilar.

chorva mollaridan samarali foydalanish davri ham turlicha bo'ladi. Masalan, qoramollardan foydalanish muddati 8-10 yil, qo'ylar 7-8 yil, shu muddatlarga qarab ularni yaroqsizlikka chiqarib go'shtga topshirish rejalashtiriladi: qoramollar 10-12% yaroqsizlikka chiqariladi, qo'ylar 14-15%, yaroqsizlikka chiqarilishi mo'ljallanib biznes rejag'a kiritiladi.

Chorvachilik tarmoqlarining yuqorida qayd etilgan xususiyatlaridan chorva mollarini jadal rivojlantirish muammolarini hal yetishda foydalanish lozim.

Chorvachilikni yanada rivojlantirish va uning iqtisodiy sama-radorligini o'stirishda davlat tomonidan ishlab chiqilgan «Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi» g'oyat katta ahamiyatga yegadir.

Davlat dasturida chorvachilikni jadal va barqaror rivojlantirish uchun quyidagi tadbiriy choralarni amalga oshirish aniq vazifa qilib qo'yilgan:

chorvachilik fermalarini xususiylashtirish;

ixtisoslashmagan xo'jaliklardagi chorvachilik fermalari, ulardagi mollar bosh sonidan qat'iy nazar 250 boshdan kam qoramoli bo'lgan fermalar shaxsiy mulk sifatida sotilishi;

mol bosh soni 250 boshdan ko'p bo'lgan qoramolchilik fermalari fermer xo'jaliklariga aylantirilishi;

davlat naslchilik zavodlari, naslchilik xo'jaliklari va fermalari, baliq yetishtirish uchun moijallangan hovuzlar va tabiiy suv havzalari xususiylashtirilmasligi;

ixtisoslashtirilgan naslchilik xo'jaliklarini tashkil yetish;

zooveterinariya punktlari ochilishi, ularni barcha kerakli laboratoriya uskunalari va asbob anjomlar bilan to'liq ta'minlash;

xususiylashtirilgan chorvachilik fermalari va fermer xo'jaliklariga sug'oriladigan yer maydonlarini berkitish;

har yili oziqabop yekinlar 140 ming gektarga, takroriy yekin maydonlarini 200 ming gektar hisobida belgilash;

“O'zgo'shtusanoat” davlat hissadorlik uyushmasida qoramollar va cho'chqalarni bo'rdoqilash;

Chorvachilikni yuritishning yangi tizimini istiqbolga mo'ljallangan tadbiriy choralarini amalga oshirish, tarmoqda mulk shaklini bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirishga va chorvachilikning oldiga qo'yilgan vazifalarni to'liq hal etishga yordam beradi.

7. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI.

Prezidentimiz I.A.Karimov «O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida» kitobida ekologik muammolar to'g'risida shunday degan edi: «Milliy xavfsizlikka qarshi muammolarni ko'rib chiqar ekanmiz ekologik xavfsizlik va atrof muhitni muhofaza qilish muammosi e'tiborga molikdir.

Asrlar davomida to'planib kelgan ekologik muammo hozirgi pallada butun insoniyat, mamlakatlar aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish, o'z-o'zidan insoniyatni o'limga mahkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko'plar ushbu muam-moga beparvolik va ma'suliyatsizlik bilan munosabatda bo'lmoqdalar.

Tabiat va inson o'zaro mustaqil qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish, o'nглаb bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi.

Beto'xtov davom etayotgan qurollanish poygasi, atom-kimyoviy qurollar va ommaviy qirg'in qurollarining boshqa turlarini sinash, insoniyat yashayotgan muhit uchun juda kata xavf tug'dirmoqda.

Tabiatga qo'pol va tavakkalchilik bilan munosabatda bo'lishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bunday munosabatda bo'lishga yo'l qo'yilsa, tabiat buni kechirmaydi.

Hozirgi paytda Respublikada istiqbolli, ya'ni atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqilgan. Tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi butun faoliyat ana shu dastur asosida tashkil etilgan. Dasturda Respublikada ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish, yirik shahar-lar va shahar agromeliorasiyalar kabilarda ekologik keskinlikka barham berish yo'llari belgilangan.

Prezidentimiz I.A.Karimovning ta'kidlashicha, «Ekologik xavfsiz-likni kuchaytirishning hozirgi asosiy yo'nalishlaridan biri: “ Jonli tabi-atning butun tabiat genofondini madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko'paytirish hisobiga boshlang'ich baza sifatida saqlab qolish kerak».

7.1.Mehnatni muhofaza qilish.

Mehnatni muhofaza qilish bu qonuniy tizim hisoblanib sosial-iqtisodiy va texnikaviy hamda sanitariya-gigiyena va tashkiliy chora tadbirlari bo'lib, odamlarning ish jarayonida sog'ligini va ishlash qobiliyatini saqlashga qaratilgan.

Maxsus gigiyena qoidalari bo'yicha hayvonlarni toza binolarda saqlash kerak.

Hozirgi vaqtda yadroviy, kimyoviy va bakteriologik qirg'in qurolla-rining mavjudligi aholini ommaviy qirg'inlardan saqlash kerakligi dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi.

Bakteriologik qurollar qo'llanilganda ko'pincha, o'tkir yuqumli kasal-liklar (kuydirgi, qoqshol, manqa, qutirish va boshqalar)ning qo'zg'atuv-chilari qo'llanilib, odam va hayvonlar havo, suv, oziqa, hashoratlar orqali zararlanadilar va tez tarqalib, odam va hayvonlar o'rtasida epidemiya boshlanishiga olib keladi.

Zararlangan hayvonlar alohida guruhlarda saqlanib, davolash ishlari o'tkazilishi kerak. Buning uchun: gipperimmun qon zardobi, antibiotiklar, sulfanilamid preparatlari qo'llaniladi. Mollar yuqumli kasalliklarga qarshi maxsus emlanadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida chorvachilik ham mexanizasiyalash-tirilib borilmoqda. Shuning uchun ham bu yo'nalish bo'yicha tashkiliy ishlar samarali tusda olib borilmoqda.

Chorvachilik obektlarida albatta yong'inga qarshi vositalar hovuzlar yong'in xavfi chiqmasligi uchun maxsus mutaxassislar elektr tarmoqlarini, gaz yo'llarini izchillik bilan tekshirib turishlari shart.

Chorva hodimlarini shaxsiy gigiyenasi sifatida ma'lum vaqt oralig'ida maxsus kiyimlar bilan ta'minlanadi. Bularning tozaligini esa veterinariya vrachi nazorat qilib boradi.

Mehnat xavfsizligi bo'yicha xo'jalik rahbarlari tomonidan ma'lum shaxs ma'sul kotib etib tayinlanadi va u doimo mehnat xavfsizligi bo'yicha nazorat ishlarini olib boradi.

7.2. Fuqarolar mudofaasi.

Fuqoralar mudofaasining asosiy vazifalaridan biri – qishloq xo'jalik obyektlarining barqaror ishlashini ta'minlashdir.

Yangi ishga kirayotgan kishilar bilan instruktaj o'tkaziladi. Instruktajdan keyin tegishli yozuvlar maxsus daftarchalarda qayd etiladi va xodimning shaxsiy jildlariga solinadi. Bu yig'ma jildlar seyflarda saqlanadi. Har yili ikki marotaba instruktaj va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ma'ruzalar o'tkaziladi va bu albatta maxsus jurnallarda qayd etiladi. Ishchining sog'ligini muhofaza qilish maqsadida unga xalat, qo'l-qop, rezina etik hamda respirator beriladi.

Chorvachilik fermalariga ishga qabul qilinayotgan kishilar maxsus tibbiy ko'rikdan o'tishlari lozim. Keyinchalik har kvartalda yana qayta tibbiy ko'rikdan o'tib turishlari zarur.

Chorvachilik fermasida xizmat qilayotgan kishilarga alohida xizmat qilish talablari qo'yiladi.

Mollarning yuqumli kasalliklari odamlarga yuqmasligi uchun ish joyida ovqatlanmasligi kerak.

Mollar bilan ishlaganda hushyorlik bilan ishlash lozim. Hayvonlar og'illarda, yayrash maydonlarida va dalalarda boqiladi. Molxonalarda boqilganda mollarni klinik ko'rikdan o'tkazish uchun ushlaganda, fiksasiya qilishda juda e'tibor berish lozim, chunki ular shoxlashi yoki tepishi mumkin.

Xo'jalikda oylik kalendar ish rejasi bo'lishi lozim. Uni xo'jalik rahbari, tuman hokimi tasdiqlagan profilaktik va epizootiyaga qarshi kurash tadbirlarining yillik rejasini hisobga olgan holda tuzib chiqadi.

Oylik rejaga kiritiladigan ishlarning turlari real sharoitga bog'liq holda turli tuman bo'lishi mumkin.

Shunday ekan, veterinariya mutaxassislari og'zaki va yozma vositalardan, targ'ibot vositalardan unumli foydalangan holda chorvachiliklarga va aholi o'rtasida yuqumli va parazitlar kasalliklari qo'zg'atuvchilariga qarshi kurash chora-tadbirlarini keng ko'lamda tushuntirishlari lozim va shart.

8. XULOSALAR VA TAKLIFLAR

1. Teylerioz qo'zg'atuvchilarining rivojlanishi va tarqalishi uchun kasal hayvon + yaylov kanasi + kasallikka moyil hayvon zanjiri bo'lishi shart.
2. Jomboy tumani xo'jaliklarida asosan Hyalomma avlodiga mansub yaylov kanalari keng tarqalgani, ularga qarshi akarasi preparatlari reja asosida olib borish kerak.
3. Sippermetrin preparatini suvdagi 0,025% li eritmasini kanalarga qarshi qo'llashda ishlatib ijobiy natijalar olindi.
4. Sippermetrin preparati boshqa akarasi preparatlarga nisbatan arzonligi, Navoiy ximiya zavodida ishlab chiqilgani inobatga olish kerak.
5. Qoramol teylerioz kasalligini davolashning yangi takomillashtirilgan usullarini qo'llashni amaliyotga tavsiya etamiz.
6. Teylerioz kasalligini oldini olishda kanalarga qarshi cho'miltirish tadbirlarida sariflangan har bir so'mga 5,5 so'mdan samara olganligi.
7. Sippermetrin preparat olimlar tomonidan o'rganilib go'sht-sut maxsulotlariga ta'sir qilmadi.
8. Sippermetrin preparatini hozirgi vaqtda har 7-kunda bir marta cho'miltirish tadbirlarini o'tkazib turishini tavsiya qilamiz.

9. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. - “O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va tiqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari”. O'zbekiston. 1995 yil
2. Karimov I.A. - “Hozirgi bosqichda demokratik islohatlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari”. O'zbekiston. 1996 yil
3. Karimov I.A.- “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida”. O'zbekiston. 1997 yil
4. Abuladze K.I. va boshqalar - “Parazitologiya i invazionnyye bolezni selskoxozyaystvennykh jivotnykh”. Uzbeknik, M.Kolos. 1975 god
5. Abduraufjon K.A. - «Protozoynnye bolezni jivotnykh Uzbekistana», Kn.I. 1996 god
6. Bogorodiskiy A.V.- «Rasprostraneniya iksodovyyh kleshchey i Bernadskaya Z.M. gemosporidioz nyyh zabolevaniy v Uzbekistane i меры борбы s nimi» V.kn «Problemy veter. Dermatologii, araxnologii i entomologii» M.1954 god
7. Dzasoxov G.S. - «Diagnostika protozoy nyyh bolezney jivotnykh». Kn.I.M.1964 god
8. Dzasoxov G.S. - «Profilaktika protozoynykh bolezney jivotnykh». Kn-II.M.1964 god
9. Sattarov O' - “Qoramollarning teyleriozini davolash va oldini olishda vosita va usullari yaratish”. F.N.diss.2001 yil
10. Epizootologicheskiye osobennosti piroplazmidozov korov Djizakskoy oblasti i меры борбы s nimi. Avtoreferat kand.dissert. 2003 yil
11. Uzoqov U.Ya. - «Iksodovyye kleshchi Uzbekistana». Fan.Monografiya. Toshkent.1972 yil
12. Xvan M.V. - Lecheniye piroplazmoza, fransaiyeleza i teylerioza krup.rog.skota (rekomendasiya) Alma-ata. 1965 yil
13. Shmunk E.K. - Materialy po ximioterapii i ximioprofilaktike teylerioza krup.rog.skota Avtoref.kand.diss

14. Ergashev E.X. - «Parazitologiya» Darslik. Shopo'latov J.Sh. T.1981.
15. Ergashev E.X. - "Chorva mollarining Protozeozlari". O'quv qo'llanma. Samarqand.1998 yil
16. Chorva mollarining araxnoentomozlari. O'quv qo'llanma. S. 2002 yil.
17. Badalov E.T. Biologicheskoye oslabennosti iksodovyx kleщey i metody borby s nimi v Tadjikistane. // Diagnostika, lecheniye i profilaktika bolezney sel'skoxozyaystvennykh jivotnykh Sb.nauch.tr. (1997-1998gg.) Dushanbe, 1998. Str. 101-107.
18. G'afurov A.G', E.K.Shmunk., I.T.Jo'rayev. // Teylerioz qon parazitarny kasalligi va unga qarshi kurash chorlari. Broshyura. Zarafshon nashryoti 1993. bet 30.
19. G'afurov A.G'. Poliamidinnyy teyleriozdagi xususiyati. // J. Veterinariya. 1997. №3 B. 11-12.
20. G'afurov A.G. Effektivnost diamidina pri piroplazmoze i yujnom babezioze krupnogo rogatogo skota. // J.Selskoye xozyaystvo Uzbekistana. 1997. №4 Str. 41-42.
21. Karimov B.A., Gafurov A.G., Timofeyev B.A. Effektivnost azidina i dinamidina s poliglyukinom pri piroplazmidozax. // J. Veterinariya. 1986. №9 Str. 46-47.
22. Karimov B.A., Gafurov A.G. Prolongatsiya preparatov s ispolzovaniyem polimerov. // Tezisy nauchno-prakticheskoy konf. «Aktualnyye problemy veterinarnoy nauki i praktiki». Samarkand 1987. Str. 86.
23. Qo'ldoshev O.U., Bobonazarov E. Piroplazmoz kasalligini davolash va oldini olishda yuqori samara beruvchi dorilarni qo'llash. // SamQXO yosh olimlar ilmiy konferensiyasi. Samarqand 1995. Bet. 129-130.
24. Metodicheskoye rekomendatsii po izucheniyu i razrabotke mer borby s protozoynymi boleznyami jivotnykh. Moskva, 1984. Str. 58.

25. Nurmamatov X.P. Novoye v terapii teylerioza krupnogo rogatogo skota. // Materialy vsesoyuznoy konferensii po parazitologii «Vozbuditeli i perenoschiki parazitov i меры борьбы s nimi». Tashkent. «Fan». Str. 140.
26. Sattarov O'.K. Teyleriozga qarshi maxsus profilaktika. // O'zbekiston qishloq xo'jalik jurnali. Toshkent 1999. №3 Bet 58-60.
27. Sattarov O'.K. Etdin. // O'zbekiston qishloq xo'jalik jurnali. Toshkent, 1999. №4 Bet 55-66.
28. Sattarov O'.K., Seredkin V.A. Teyleriozning oldini olishda etdin preparatini qo'llashdan olingan iqtisodiy samara. // Hayvonlarning o'ta xavfli kasalliklarini tarqalishi va oldini olish monitoringi / O'z. R. Mustaqilligining 10 yilligi va O'zVITI ning 75 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya ma'ruzalari matnining to'plami. Samarqand 2001. bet 137-138.
29. Tursunov M.T., Qo'ldoshev O.U., Sattarov O'. Ximioterapiya piroplazmoza i fransaiyelleza krupnogo rogatogo skota. // Tezisy dokl.nauchn. konf. Problemy izyskaniya, sinteza i proivodstva novyx preparatov dlya veterinarii. Samarkand. 1994. Str. 106.
30. Tursunov M.T., Qo'ldoshev O.U., Bulxanov R.U. Piroplazmozni maxsus oldini olish. // Hayvonlar o'ta xavfli kasalliklarni tarqalishi va oldini olish monitoringi / O'zR. Mustaqilligining 10 yilligiga va UzVITI ning 75 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya ma'ruzalari matnining to'plami. Samarqand 2001. Bet 149-150.
31. Yakimov V.L., Bolezni domashnix jivotnyx, vyzivayemyx prosteyshimi (Protozoa) M.: Selxozgiz, 1931. Str. 814-817.
32. Prof. Guo Gu Theileriosis of cfttle in Xinsiang, china // J. institute of veterinary Medicine, Xinsiang Academy of animal Siences Urumgi, Xinsiang, P.R.China – 2001 P. 1-4.
33. <http://www.google.ru/url?q=http://www.morcov.narod.ru/Load/parazit.doc>
34. www.intervet.ru/

10. ILOVALOVALAR VA INTERNET MA'LUMOTLARI

ТЕЙЛЕРИОЗ - у парнокопытных; тканевые стадии – макро- и микрошизонты развиваются в лимфобластах, моноцитах, клетках РЭС лимфоузлов и селезенки и печени и эритроцитах крови. На заключительном этапе в микрошизонтах формируются мерозоиты которые инвазируют эритроциты. Мерозоиты округлой формы, запятовидной, палочковидной, грушевидной. Располагаются в эритроците по 1-8 встречаются крестовидные формы. Спорозоиты формируются в слюнной железе клеща и инокулируются животному при кровососании.

Сем. Theileriidae,

Theileria annulata, *T.parva*, *T.mutants*, *T.sergenti* (дальневосточный) – у КРС

T.ovis, *T.hirci* – Овцы

T.tarandirangiferis – у сев оленей.

Развитие половое протекает в в стенке к-ка, гемолимфе, гемоцитах клещей в период метаморфоза и завершается формированием спорозоитов в слюнной железе нимф и имаго. Спорозоиты выявлены и в слюнной железе непитавшихся имаго. Последовательность: макроГАМОНТЫ >> микро- и макрогаметы >> Зиготы. На 13 день зиготы подвижны зигокинетами и с 17 дня в гемолимфе. Затем в альвеолы слюнных желез II и III типа где округляются и превращаются в споронты. >> первичные споробласты и >> спорозоиты – инвазионная стадия для теплокровных. Трансовариальная передача тейлерий клещами не установлена. В клещах 10-13 мес. Со слюной нимфы или имаго на 1-5 день питания >> в лимфу и кровь. Шизогония в лимфоидных органах. Сформировавшиеся в микрошизонтах мерозоиты внедряются в эритроциты и делятся на 2 или 4 простым делением. В организме переболевших сохраняется до 6 лет.

Распространена болезнь в южных зонах (Сев Кавказ, Калмыкия, Астраханская обл), центральной Азии, Закавказье, странах Балканского полуострова (Италия, Кипр, Турция). Заб-е с мая по сентябрь (активность *Nyalomma detritum*)

Инкуб период 6-12 дней. начинается с резкого увеличения и болезненности наружных регионарных лимфатических узлов. Через 3 дня повышается t до 41 С. Отмечается слезотечение со следами крови где шизонты тейлерий. Гибель 35-95%.

Диагноз: «гранатные тела» в пунктате из *ln* , печени и селезенке, и эритроцитарных форм в мазках крови, серологические – РСК, РДСК и РИФ. Лечение: хиноцид в первые 3 дня 1мг/кг; бигумаль в 4-5 день в дозе 12,5 мг/кг. Внутрь вводят 1 р/д в виде 1%. Молодняк $\frac{1}{2}$ - $\frac{1}{4}$ дозы, телятам - 1/16. Профилактика: бигумаль в сочетании с азидином с момента нападения клещей на животных. Повторяют ч-з 15 дней. Акарициды.

<http://www.google.ru/url?q=http://www.morcov.narod.ru/Load/parazit.doc>
